

BIBI ROBIYA SAIDOVANING “OQMAYDIGAN TOSH” NOMLI HIKOYASI

Ruziboyev Bobir Mirzakulovich

JDPU mustaqil tadqiqotchisi Samarqand viloyati Bulung'ur tumani

69-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi bobirruziyev16@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.21306831>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi Bibi Robiya Saidovanning “Oqmaydigan tosh” nomli hikoyasi ma’naviy-axloqiy jihatdan tadqiq etilgan. Unda bosh qahramon Xursandoy ismli yetti yashar qizcha urush tufayli achchiq qismatga duchor bo’lganligi, yetimlik azobini totganligi hikoya qilinadi. Jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarning insonlarga ta’siri tahlil etilgan. Hikoyadagi ma’naviy evrilishlarga e’tibor qaratilgan.

Kalit so’zlar: badiiy obraz, yetakchi qahramon, roviy, o’tish davri odami, an’anaviy realistlik, psixologik ruhiy jarayon.

“Adabiyot badiiy obrazlarning murakkab sistemasi orqali inson tuyg’ulari, ehtirosi, psixologiyasi va ongining jamiyat, davlat, tarix va tabiat bilan bog’liqlik darajasini ochib beradi. Adabiyot insonni tasvirlash orqali real voqelikni gavdalantiradi”¹. Shunday ekan, ma’naviy-axloqiy mavzudagi hikoyalarda yetakchi qahramonlar talqini masalasi istiqloq davri ijodkorlari asarlarida o’tish davri odami yoki o’ziga xos inson tarzida aks ettirilgan. Bosh qahramonlarning barchasi ham sho’ro nasri namunalaridagi kabi ijobiy qahramonlar bo’lmasdan, balki aksari murakkab shaxslar obrazlari sifatida aks ettirilgan. Chunki bu davr insonlari mustaqillik tufayli ruhiyatida o’zgarish bo’lgan, avvalgi siyosat va iqtisodiy muammolarni o’ziga xos tarzda hal etayotgan kishilar sifatida talqin etilgan.

Yozuvchi Bibi Robiya Saidovanning “Oqmaydigan tosh” nomli hikoyasi bosh qahramoni Xursandoy ismli yetti yashar qizcha bo’lib, asarda uning urush tufayli achchiq qismatga duchor bo’lganligi, yetimlik azobini totganligi hikoya qilinadi. Asar mazmuniga ko’ra Mutahhara ismli ayol urushda bedarak ketgan ukasining oilasiga – kelini va ikki farzandiga qarab turganligi, ularni akasi va boshqa yaqinlari bilan diydorlashishga jo’natgach, o’z manfaatlari uchun aka va opalar birlashib, kelin – Mo’tabarni boshqa boyroq odamga erga berib yuborishlari xususida so’z boradi. Onasi erga tegib ketgach, ikki bola ikki joyga bo’linadi:

“Isomiddin, Xadicha, endi onangiz ham, otangiz ham biz bo’lamiz. Bundan keyin bizning chizgan chiziqdan chiqish bo’lmasin! Xo’sh... Ismat, sen hozir mana bu o’rtancha xolang bilan jo’naysan. Eri urushga oyog’ini tashlab kelgan. Og’ir-yengil yumushlariga qarashib yurasan. Xadicha qizim, sen biz bilan qolasan. Yangangning ahvolini ko’rib turibsan, opalaring paxtaga ketganda... Xullas, sengayam shu gap. Bo’ldi, gap tamom. Omin!” – deya bolalar taqdiriga hukm o’qiydi tog’a. Hayotlariga bosib kelayotgan allaqanday xavf, sovuq bir sharpani bola yuragi bilan his etgan Isomiddin kattalarning bu qarorlaridan noroziligini bildirdi.

“– Lekin, – Isomiddin gapining keskin ohangidan o’zi ham seskandi-yu pastroq tovush bilan davom ettirdi. – Lekin... ammam singlingni yoningdan ayirma, unga doim ko’z-quloq bo’l, degandilar, – bir yutoqdi-yu, – onam ham”, – dedi.

Ammo qahri qattiq tog’a bolalarning o’zi bilan ham, ko’ngli bilan ham hisoblashib o’tirmadi: “– O’, tillari biyron-ku! Bu uyda qarorni faqat men qabul qilaman, tushundingmi? Ortiqcha gap bo’lmasin! O’sha ammanggayam seni... Rahmat deyish o’rniga... – o’shqirdi tog’a. So’ng tezda yuziga fotiha tortildi.

¹ Муаллифлар жамоаси. Адабиёт назарияси. 2 томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 153.

Tish-tishlarga qattiq qisildi. Qiz indamas, ma'yuslangan ko'zlarini tomdagi musichadan uzmasdi. Aka-singil xayrlashgach, ayrilishdi"². Tahlilga tortilayotgan parcha so'ngida keltirilgan oxirgi jumlar mohiyatiga singdirilgan ma'noning yuki, zalvari og'ir. Juda zich, lakoncha ifoda orqali yozuvchi beomon shafqatsiz taqdir zarbalariga juda erta ro'baro' bo'lgan aka-singilning bola ko'ngillarida kechayotgan bo'ronlarni "Tish-tishlarga qattiq qisildi", "qiz indamas", "ma'yuslangan ko'zlarini tomdagi musichadan uzmasdi" kabi ruhiy portret chizgilarida akslantiradi. Tog'aning yuziga fotiha tortishi orqali bolalar taqdiriga o'qilgan hukm bilan yuzaga kelgan tashqi sukut va ularning beg'ubor ko'nglida kechayotgan bolalarcha isyon kontrast holatda qattiq tishlanish, "ma'yuslangan ko'zlar", "qiz indamas" tasviridagi dramatik vaziyatni ifodalasa, yozuvchi tomonidan qo'llangan musicha detali beozor, hurkak, yuvosh qush sifatida aka-singilning bundan keyin kechayotgan hayotlaridagi o'rinlariga, holatlariga ishoradek ko'rinadi. "Aka-singil xayrlashgach, ayrilishdi". Bu jumla tasvirdagi dramaning go'yoki portlovchi nuqtasi, psixologik-ruhiy jarayonning mantiqiy-fojiaviy yakuni.

Inson shu nomga loyiq ish ko'rganda, qaror qabul qilganda, yashagandagina uni o'rab turgan ma'naviy-axloqiy iqlim toza bo'ladi. "Oqmaydigan tosh"da muallif nafs, muruvvatsizlik, shafqatsizlik natijasida kirlangan iqlimning manzarasini bola shaxsini, ruhini yemirishga qaratilgan kattalarning sharaftsiz qiyofalarida ochadi.

Shu qaror tufayli ikki bola hayotida azobli kunlar boshlanishi aytiladi. Muallif bolalar ismini asar boshida Isomiddin va Xursandoy deb, keyinchalik bolaning ismini Ismat va qizning ismini Xadicha deb beradi. Bu yozuvchining biroz bee'tibor bo'lganini ko'rsatadi. Asarda yanganing 7 yashar Xadichaga qilgan muomalalari o'quvchiga judakuchli ta'sir qilishi tayin:

"-Tashvishlar bilan bo'lib indamadim. Seni quchog'imda erkalab yotish uchun olib qolganim yo'q. Kuz kelyapti. Bundan keyin har ertalab dashtga tezak tergani chiqasan. Peshingacha xaltani to'ldir. Tushundingmi, pismiq?"³

Yoki:

"-Tur-ey, molga o'xshab yotaverarkansan-da. Ko'chani man supuraymi, a? Keyin paqirlarga suv to'ldir!"⁴

Hikoyada lirizm bilan yo'g'rilgan psixologik tasvirlar, Xadichani onasizlik va yetimlik azobi dilini o'rtayotgan damlar ifodasi uchun berilgan.

"Xadicha yangasi ko'rsatgan joydan chelaklarni oldi-da, chiqib ketdi. Borsa, anhor bo'yida sochlarini suvga solgancha majnuntol xayolga berilib o'ttiribdi. Anhor uning har aksini yangilab, "Dunyodagi eng go'zali - sen" deb harchand ishontirmasin, shamol sochlarini silab, erkalab qancha ertak aytmasin, nima uchundir boshi egik. Xadicha chelaklarni daraxt yoniga qo'ydi.

Majnuntolning tollarini siypab, "Seni ham onang tashlab ketdimi?" dedi. Anhor ham, shamol ham savoliga javob topgandek bo'ldi"⁵.

Ya'ni majnuntol haqidagi afsonalarda aytilgan sevgilisi tashlab ketgani uchun emas, balki onasi tashlab ketganligi uchun daraxt qayg'u chekayotganligi hikoya qahramoni bo'lgan Xadicha o'y-xayollari orqali kashf etiladi. Bu usul va yordamchi g'oya ham yetakchi qahramon Xadicha ruhiyati ifodasida qo'l kelgan.

Yozuvchi Xadicha ruhiyatini ochib berishda boshqa detallardan ham unumli foydalanadi. Xususan, tosh detali ham o'z ma'nosida, ham majoziy ma'noda qo'llaniladi: "Mana, bugun ham "tezak terim"iga qarab yo'l oldi. Anchagini tikonlar ichidan topdi. Bu safar tikonlar qo'lini

² Саидова Б.Р. – Парвоз. – Тошкент: Адиб, 2014. – Б. 76.

³ Саидова Б.Р. – Парвоз. – Тошкент: Адиб, 2014. – Б. 76.

⁴ O'sha manba. – B. 77.

⁵ O'sha manba. – B. 77.

qonatmadi. Ammo boshi yana aylanib, lablari quruqshab, madorsiz yiqildi. Qiz **toshga** boshini qo'ygancha, bir muddat mizg'ib oldi. So'ng yana o'sha g'ishtin uy tomon yuzlandi"⁶.

Bu o'rinda oddiy toshdan yostiq sifatida foydalangan qizcha undan halovat topayotgan bo'lsa, boshqa o'rinda ana shu tosh ko'ngildagi og'ir yuk – onasizlik, yetimlik azoblari natijasida hosil bo'lgan yuk, armon, shuningdek, bolalarini tashlab, erga tegib ketgan, ulardan bir marta bo'lsa ham xabar olmagan o'z onasi – Mo'tabarga nisbatan kuchli nafrat, g'azab ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilgan:

“Yo'q, bundan keyin bormayman. Shuncha kunlar ichida bir marta bo'lsayam xabar olishga, ahvolimni ko'rishga kelmadilar”. Suyanib turgan **toshi** og'irroq bo'lib yuragiga ko'chdi. Dadillangach, uyga – egizaklarning oldiga qaytdi. Beshiklar nisbatan tezroq tebrala boshlandi. Xadicha ularga diqqat bilan razm soldi: “Sizlar ham katta bo'lgach, urushga borasizlar. Sizlar ham u yerda yo'qolib ketasiz. Sizlarning xotiningiz ham bolalarini tashlab ketadi. Keyin bolalaringiz menday... menday...” U yog'iga ho'ngrab yig'lab yubordi. Chaqaloqlar ham jo'r bo'lishdi. Bu yig'i og'ilxonaga kirib ketgan yangaga eshitilmadi"⁷. Ya'ni yetti yashar qizchaning yuragidagi og'ir tosh – mehrsizlikdan azoblanish tufayli yuzaga kelgan chuqur iztiroblar natijasi ekanligi keyinchalik ham asar nihoyasida yana bir marta esga olinadi:

“Kunlar, oylar, yillar umrni, odamlarni, hatto urush degan dahshatli vahimani ham oqizib ketdi. Faqat... faqat... Xadichaning yuragidan umr bo'yi azob bergan toshni oqizib ketolmadi...”⁸

Yetti yashar qizchadagi qat'iyat ammasining aka-singilni oxirgi marta onasi bilan xayrlashib qolishga da'vat qilgan chog'ida yana bir bor namoyon bo'ladi. Ya'ni qizcha onasi bilan xayrlashishni istamasligi yaqinlarini ham hayratlantiradi:

– Isomiddin, Xadicha, huv anavi g'ishtin hovliga kirib, onangiz bilan xayrlashib chiqinglar.

– Amma, siz ham biz bilan yuring, – dedi Isomiddin hayajonlanib.

– Yo'q, men sizlarni shu yerda kutaman.

– Tezda chiqamiz. Ketdik, Xadicha. Onamni biram sog'indimki.

Xadicha akasining ko'kargan ko'ziga, yuzining timdalangan joylariga tikilib turdi. So'ng onasi ketgandan keyin kechirgan kun-u tunlarini xayol tasmaidan bir-bir o'tkazdi.

– Yo'q, men bormayman. Hech qachon bormayman.

Amma ham, aka ham Xadichaga hayratomuz nigohlarini qadashdi. Amma uning boshini silagancha:

– Bu sen uchun oxirgi imkon bo'lishi mumkin. Boraqol, – dedi.

– Yo'q, istamayman. Bizni tashlab ketdilar. Bir martayam meni yo'qlab kelmadilar. Qancha kutdim, qancha... – Xadicha yig'lab yubordi.

Aka yolg'iz o'zi jo'nadi. Beriroqdagi shildirayotgan, shivirayotgan ariqning bo'yida amma-jiyan, yo'q, ona-qiz yolg'iz qoldi"⁹.

Ushbu parchada Xadichaning akasi Isomiddining ham hayoti yaxshi o'tmaganligi qizning nigohi orqali anglashiladi, ya'ni “Xadicha akasining ko'kargan ko'ziga, yuzining timdalangan joylariga tikilib turdi” tasvirida akaning ham u berib yuborilgan xonadonda, xolasining uyida yaxshi yashamaganligi, ro'shnolik ko'rmaganligiga ishora qilinadi.

Umuman olganda, Bibi Robiya Saidovaning “Oqmaydigan tosh” hikoyasining bosh qahramoni bo'lgan yetti yashar qizcha Xadichaning yetimlik tufayli tortgan iztiroblari fonida asar qahramonlarining ma'naviy qiyofasi ochib berilgan. Xususan, onasining laqma va ko'nuvchanligi,

⁶ O'sha manba. – B. 77.

⁷ Саидова Б.Р. Парвоз. – Тошкент: Адиб, 2014. – B. 79.

⁸ O'sha manba. – B. 95.

⁹ Саидова Б.Р. Парвоз. – Тошкент: Адиб, 2014. – B. 77.

tog'asi va yangasining johilligi-yu bemehrligi ta'sirchan talqin etilgan. Shuningdek, qizchaning tortgan azoblarining badiiy tadqiqida yozuvchi uning toshga bosh qo'yib orom olishi, yonib turgan kosovni bosib pufak qilingan qo'l va oyoqchalari, hidlangan tanasi, taralmagan sochlari, uvada kiyimi hamda boshqa tasvirlar va detallardan unumli foydalangan. Qahramon ruhiyati tasvirida esa soy bo'yidagi majnuntol, onasi yashayotgan g'ishtin uy, beshiklar, alla, tosh va boshqa timsollar mahorat bilan qo'llanilgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Муаллифлар жамоаси. Адабиёт назарияси. 2 томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 153.
2. Саидова Б.Р. – Парвоз. – Тошкент: Адиб, 2014. – Б. 76.